

Biologik rekordlar...

- ✚ Dunyodagi eng katta sut emizuvchi hayvon ko'k kitdir uning og'irligi 150 tonna, uzunligi 30 m bir kecha kunduzda 2-4 tonna oziq yeydi. Eng qizig'i ko'k kitning tishlari bo'lmaydi u faqat planktonlar bilan oziqlanadi.
- ✚ Dunyodagi eng katta gul Raffleziya Arnoldi bo'lib u gulni Sumatra orolida Raffleziya va Arnoldi birinchi bo'lib ucharatgan bu gulga o'zlarining nomini bergan gul diametri 1 m.
- ✚ Dunyodagi eng katta quruqlikdagi hayvon fildir xartumlilar turkumiga kiruvchi bu hayvon 4-5 tonna toshni bosadi.
- ✚ Dunyodagi eng katta yong'oq hosil qiluvchi daraxt Seyshel orolida o'suvchi seyshel palmasi bo'lib 13-25 kg tosh bosadigan yong'oqlarni hosil qiladi.
- ✚ Dunyodagi eng kichkina gul volffiya bo'lib gulining diametri 1mm yani taxminan to'g'nog'ichning uchiday keladi.
- ✚ Dunyodagi eng katta qush Afrika tuyaqushi bo'lib bo'yi 3m og'irligi 100 kg ni, tuxumi esa 1409 gr ni tashkil qildi. Tuyaqush uzun va baquvvat oyoqlari yordamida soatiga 60-70 km tezlik bilan yugura oladi.
- ✚ Dunyodagi eng katta toshbaqa dengiz toshbaqasi bo'lib uning og'irligi 300 kgni tashkil qiladi.
- ✚ Dunyodagi eng katta ikki pallali molluska dengizlarda yashaydigan tridakna deb nomlangan molluska bo'lib 250 kg ga yetishi aniqlangan.
- ✚ Dunyodagi eng katta akula kitsimon akula bo'lib uzunligi 12-20 metrni, og'irligi 15-20 tonnani tashkil qiladi.
- ✚ Dunyodagi eng kichik akula tikanli akula bo'lib uzunligi 40-45 smni tashkil qiladi.
- ✚ Dunyodagi eng ko'p elektr tokini ishlab chiqaradigan hayvonlar tropik dengizlarda uchraydigan kichikroq skatlar bo'lib 70 Vt kuchlanishli elektr zaryadi hosil qiladigan a'zosi bor.

✚ Dunyodagi eng katta kurakoyoqli bu morj bo‘lib, tanasining uzunligi 4 m ga, vazni esa 2000 kg ga yetadi. Uning yuqori jag‘ida pastga qarab o‘sgan 40-70 sm li tishi bor.

✚ Dunyodagi eng katta daraxtlar Avstraliya evkalipti bilan sekvoyadendron daraxtlaridir. Eng baland evkaliptning balandligi 155 m, sekvoyadendronniki esa 142 m ni tashkil qiladi. Shunday yirik daraxt mittigina urug‘dan unib chiqdi uning bitta qubbasida 200 tacha urug‘ bo‘ladi, 196 ming urug‘ esa 1 kg ni tashkil qiladi.

✚ Dunyodagi eng kichik qush nektarxo‘r(kolibra) bo‘lib bu qush faqat gul nektari bilan oziqlanadi. Og‘irligi bor yo‘g‘i 1,5 gr.

✚ Dunyodagi eng katta qirqquloq (paporotnik) daraxtsimon bo‘lib Yangi Zelandiyada o‘sadi, bu o‘simlik spatiya turkumiga mansub, balandligi 24 metr ga yetadi.

✚ Dunyodagi eng katta xanjarsimon mevali o‘simlik Malayziyada o‘sadigan oroksalondir. Uning balandligi 18 metr. Mevasining uzunligi 60-120 sm eni 8 sm keladi.

✚ Dunyodagi eng katta ilon anakonda bo‘lib, uzunligi 11.4 metr keladi. Eng qizig‘i bu ilon 100 taga yaqin tirik bola tug‘adi.

✚ Dunyodagi eng zaxarli ilon yo‘lbars ilon bo‘lib, Tasmaniyada yashaydigan ushbu bitta ilonning zaxari 400 kishini o‘ldirar ekan.

✚ Dunyodagi eng katta kaltakesak Komod va Flores(Indaneziya) orollarida yashaydigan komod echkiemari bo‘lib, uzunligi 3,66 m, og‘irligi esa 160 kg keladi. Eng qizig‘i odamlarga ham xujum qilishidir.

✚ Dunyodagi eng katta toshbaqa dengiz toshbaqalaridan bo‘lgan terili toshbaqadir(Dermochelys coriacea). Bu jonivorning og‘irligi 600 kgdir.

✚ Dunyodagi eng katta baqa G‘arbiy Amerikada, Kamerun va Angolada yashovchi goliyf baqa(Rana goliath)si bo‘lib, uzunligi 76 sm, boshi 33sm oyoqlarining uzunligi 44,5 sm, og‘irligi 5 kgdir.

✚ Dunyodagi eng uzoq umr koʻruvchi jonzod bakteriyalar boʻlsa kerak. Ular noqulay sharoitda spora hosil qiladi. Bu sporalar quruq joyda ming yillab hayotiychanlik hususiyatini yoʻqotmaydi.

✚ Dunyodagi eng tez suzuvchi qush pingvindir. Bu ajoyib qush soatiga 36 km tezlik bilan suzadi.

✚ Dunyodagi eng katta maymun gorilla boʻlib, boʻyi 2m. Ogʻirligi 260 kg yetadi.

✚ * Dunyodagi eng yirik tungi kapalak Attacus Altas. Qanotlari yoyilganda 30 sm.ga yetishi bois koʻpincha koʻrganlar uni qush deb oʻylashadi.

* Dunyodagi eng tez uchuvchi hasharot ninachi hisoblanadi. Uning harakatining tezligi 57 km/soatga yetadi.

✚ Dunyodagi eng katta ari yapon qovoqarisidir, uzunligi 7 sm. Oʻzidan ikki barobar katta hasharot tanasini ham daxshatli jagʻlari yordamida kesib tashlaydi. Har yili Yaponiyada 40 kishi bu arilarning hujumidan vafot etadi. Qorin qismidan otilib chiqadigan zahar insonni oʻldiradigan darajada kuchlidir.

✚ Dunyodagi eng katta kemiruvchi hayvon Janubiy Amerikada yashovchi qunduzsimon kapibaradir. Bu jonivorning ogʻirligi 60 kilogrammga yetadi.

✚ Dunyodagi eng katta molekula ham organik olamga tegishli boʻlib bu DNK va RNKdir.

✚ Dunyodagi eng katta tirnoqlar ayiqsimonlarga tegishlidir.

✚ Dunyodagi eng jasur hayvon deb Ginnesning rekordlar kitobiga mitti asalxoʻr kiritilgan. Bu hayvon yoʻlida uchragan barcha hayvonlarni ilonlarni, kemiruvchilarni va hakozolar bilan oziqlanib ketaveradi. Bu hayvon asalxoʻr emas, balki asalari lichinkasi bilan oziqlanadi. Ilon zahri taʼsir ham qilmaydi.

✚ Dunyodagi eng katta hujayra tuyaqush tuxumi boʻlib olimlarimiz bu tuxumni eng katta hujayra deb atashadi. Ogʻirligi 1409-1500 gr gacha chiqadi.

✚ Dunyodagi eng katta barg rafiya palmasiga tegishli boʻlib, chodirdek keladigan bitta bargining uzunligi 22 m, eni 12 m, bargining bandi esa 5 m ga yetadi.

✚ Duniyodagi eng katta ignabarg Himolay tog'larida o'sadigan pinus logifoliya nomli qarag'ay barglaridir. Bir dona ignabargining uzunligi 30 sm ga yetadi.

✚ Duniyodagi eng ko'p barglari yashaydigan o'simlik Afrikada o'sadigan velvichiyadir. Uning 2-3 ta tasmaimon barglari, 100 yilgacha o'sib turadi.

✚ Duniyodagi eng katta to'pgul Hindistonda o'sadigan tallipot palmasi bo'lib, to'pgulining uzunligi 14 m, aylanasi esa 12 m ga yetadi.

✚ Duniyodagi eng bo'yi uzun suv o'ti Tinch okeanida o'sadigan makrotsistis bo'lib, uzunligi 60 m, bu o'simlik sutkasiga 45 sm tezlik bilan o'sadi.

✚ Duniyodagi eng sekin o'sadigan o'simlik qutb lishaynidir. Bu o'simlik yuz yilda 2,5 sm o'sadi. O'zi esa 4500 yil umr ko'radi.

✚ Duniyodagi eng tez o'sadigan o'simlik bambuk bo'lib, bir kecha kunduzda 90 sm ga o'sadi. Eng qizig'i bambuk daraxt emas balki o't o'simlikdir. Balandligi 18 metrga yetadi.

✚ Duniyodagi eng havfli molluska Hind okeanida yashaydi, bu molluskalar zaharli haltachasi bo'lib, juda ham kuchli zahar ajratadi. Shuning uchun bularni jahanam vampirlari deb atashadi.

✚ Duniyodagi eng tili uzun hayvon jirafadir, tilining uzunligi qariyb 50 sm. ekan. Shu sabab ham u o'z quloqlarini tili bilan tozalaydi. Yana bir jihat - ko'pchilikning nazdida tuya suvsiz eng ko'p vaqt yura oladigan hayvon. Biroq yaqinda olimlar jirafaning tuyaga nisbatan ko'proq muddat suvsiz yura olishi mumkinligini isbotlashdi.

Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi 11-sonli davlat ixtisoslashtirilgan makatb-internatining biologiya fani o'qituvchisi Olimov Shukurjon tayyorladi.